

**O'roqova Dilnoza Ilhom qizi**  
**Qarshi davlat universiteti tarix fakulteti 2-kurs talabasi**  
**@dilnozaoroqova722@gmail.com**  
**94 992 06 15**

---

## **AMIR TEMUR BUYUK SARKARDA**

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqola Amir Temur davlatining tarixi harbiy san'at tarixi, boshqa yurtlarga qilgan hujumi uning o'z davlati tassarufi ostiga olishi, xalq uchun qilgan o'z ona yurtini g'animplardan himoya qilganligi to'g'risida ma'lumot berib o'tadi. Jamiyatga ozodlikka va taraqqiyotga bo'lgan intilishlarni o'zida mujassam etgan xaloskor mard Amir Temur harbiy mahorati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, Chingizxon, Movarounnahr, Balx, So'g'diyona, Samarqand, Farg'ona, Shosh, Amudaryo, Sirdaryo, O'rta Osiyo, Hind, Gang, Tyan - Shan, Bosforgacha, Oltin O'rda, Moskva Rusi, Boyazid, Konstantinopol, R. Grusse, O'tror, Florensiya, Go'ri Amir, To'xtamishxon, Shaybonixon, qunbul, to'lyuma, diviziya.

**ANNOTATION:** This article provides information about the history of Amir Temur's state, the history of military art, his attacks on other countries, his conquest of his own country, his protection of his motherland from looters, which he did for the people. It is said about the military skills of Amir Temur, the liberating hero who embodies the aspirations for freedom and development of the society.

**Key words:** Amir Temur, Genghis Khan, Movarounnahr, Balkh, Sogdiya, Samarkand, Ferghana, Shosh, Amudarya, Syrdarya, Central Asia, Indus, Ganges, Tien - Shan, Bosphorus, Golden O'rda, Moskva Rusi, Bayazid, Constantinople, R. Grusse, O'tror, Florence, Gori Amir, Tokhtamishkhan, Shaybonikhan, Kunbul, Toluma, division.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье представлены сведения об истории государства Амира Темура, истории военного искусства, его нападениях на другие страны, завоевании им собственной страны, защите своей Родины от грабителей, что он делал для народа. . Говорят о военном мастерстве Амира Темура, героя-освободителя, воплотившего стремление общества к свободе и развитию.

**Ключевые слова:** Амир Темур, Чингисхан, Моваруннахр, Балх, Согдия, Самарканд, Фергана, Шош, Амударья, Сырдарья, Средняя Азия, Инд, Ганг, Тянь-Шань, Босфор, Золотая Урда, Москва Руси, Баязид, Константинополь, Р. Груссе, О'трор, Флоренция, Гори Амир, Тохтамышхан, Шайбонихан, Кунбул, Толума, дивизия.

---

## **KIRISH**

Ma'lumki, Amir Temur siymosi o'zbek va jahon tarixida o'zining alohida chuqur o'chmas iz qoldirganligi ya'ni buyuk adolatli davlat siyosatchisi sifatida e'tirof etiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, asrlar o'tibdiki Amir Temur shaxsidek buyuk shaxs tarix zarvaraqlarida hech bir davlat arbobichalik o'zini vataniga baxshida etmagan buning yorqin isboti sifatida u amalga oshirgan salmoqsiz ishlarni keltirishimiz mumkin. Amir Temur nomi ham unga otasi tomonidan bejizga berilmagan, shunday ekan bunga alohida to'xtalsak, Temurbey atoqli otdir va temir temir so'zidan kelib chiqqan bo'lib, fer-fransuzcha temir ma'nosini bildiradi va bey so'zi hukmdor so'ziga teng bo'lib, temir hukmdor degan ma'noni bildiradi.

U kelib chiqishi bo‘yicha sharqlik barloslardan bo‘lib, ularning millati yakote (chig‘atoy) deb ataladi. Ba’zilar fikricha, bu o‘lkaga Hindiston tomondagi Persiyadan keyingi Korasan (Xuroson) viloyati, Mediya (Ozarbayjon) viloyati va boshqa viloytlar kiradi. Bu o‘lka tarkibiga kiruvchi yana bir shahar bu- Temurbeyning shahri Semerkantdan (Samarqand) juda yiroqda, yuz kunlik masofada, Jiyon daryosidan narida - Persiyada joylashgan Suzis (Suza) shahridir. Amir Temur yoshligida tengqurlari kabi oddiy yigit bo‘lgan, ammo zukkoligi aql-zakovati bilan ajralib turgan.U doim Xudoni olqishlaydi va nima qilsa faqat Xudo uning amri bilan qiladi.O‘zining aytishicha, u bir bechora ayolning o‘g‘li, kuchsiz va kambag‘al yigit bo‘lgan, u nimaga erishgan bo‘lsa , Xudoning marhamati ila erishgan.

## **ASOSIY QISM**

Mashhur davlat arbobi, O‘rta asrlar islohotchisi, sarkarda, adolat uchun tolmas kurashchi, ilm-fan va madaniyat rahnamosi Amir Temur davrida ilm-fan, madaniyat va ta’lim mislsiz darajada yuksaldi. Siyosiy maydonga qadam qo‘yanida Amir Temur endigina 24 yoshga kirgandi. Mamlakat parokanda, mahalliy siyosiy kuchlar o‘rtasidagi o‘zaro qarama-qarshiliklar avj olgandi. Ustiga ustak, Chingizzon avlodlari Movarounnahrning tez-tez bosqin uyuştirib turardi. Taxminan bir asr davom etgan bu davrda Movarounnahrning istibdod alamini tortgan oddiy fuqarolaridan to yirik siyosiy arboblariyu din peshvolarigacha juda ham og‘ir kun kechirdilar. Jamiyatga ozodlikka va taraqqiyotga bo‘lgan intilishlarni o‘zida mujassam etgan xaloskor, dohiy zarur edi. Taqdir taqozosni bilan Amir Temur ana shunday xaloskor va yo‘lboshchi sifatida tarix sahnasida paydo bo‘ldi. 1370 yilda Amir Temur Balxda bo‘lib o‘tgan qurultoyda Movarounnahrning ulug‘ amiri deb e’lon qilindi. Tarqoqlikni bartaraf etib, ayrim o‘lkalarni yagona davlatga birlashtirish Amir Temurning asosiy maqsadi edi.

U davlatning poytaxti qilib So‘g‘diyonaning qadimiy poytaxti bo‘lgan Afrosiyob xarobalari yonidagi Samarqandni belgiladi va yangi shaharga asos soldi. Amudaryo bilan Sirdaryo oralig‘i, shuningdek, Farg‘ona va Shosh viloyatlarini birlashtirib o‘ziga bo‘ysundirgandan keyin Amir Temur boshqa mamlakatlarga harbiy yurishlarga kirishdi. Amir Temur sultanati O‘rta Osiyoda 35 yil (1370-1405) hukm surdi. U Markaziy Osiyo hududlarini yagona markazlashgan davlatga birlashtirdi, Hind va Gangadan to Sirdaryo va Zarafshongacha, Tyan-Shandan to Bosforgacha ulkan imperiya barpo etdi. Amir Temur harbiy yurishlarining bilvosita oqibatlari ulkan ahamiyatga ega: u Xitoya Min sulolasi davlat boshiga kelganda mo‘g‘ullarning Xitoya solayotgan xavfining oldini oldi; Oltin O‘rdani yengib Moskva Rusi uchun ham xuddi shunday yordam ko‘rsatdi. 1402 yilda usmonlilar sultonii Boyazid ustidan Yevropa uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan g‘alabani qozonib, usmonlilarning Konstantinopolni istilo etishlarini yarim asrga surib yubordi.

Frantsuz tarixchisi R.Grusse XX-asr boshlarida “Amir Temurning Boyazid ustidan g‘alabasi xristian olamini asrab qoldi”, deb yozgan edi. Amir Temur hayotlik paytida davlat boshqaruvi haqida “Temur tuzuklari” degan nomda mashhur bo‘lgan maxsus kitob yozilgan edi. Unda bu mashhur davlat arbobi va sarkardaning harbiy san’atga, davlat tuzilishi va mamlakatni boshqarishga oid qarashlari aks etdi. “Kuch adolatda” shiori butun Amir Temur davlati hududida axloqiy va ma’naviy mezonga aylandi.

Amir Temur umrining ko‘p qismini yurishlarda o‘tkazdi. Sharqq qilgan yurishi paytida Amir Temur 1405 yil 18 fevral kuni O‘tror shahrida vafot etdi.

Uning jasadi Samarqandga olib kelinib, 23 fevral kuni Go‘ri Amirda, nabirasi Muhammad Sulton daxmasida dafn qilindi. Yevropalik olimlar Amir Temur va uning faoliyati haqida bundan to‘rt yuz yil ilgari gapira boshlagan edi. 1553 yilda Florentsiya (Italiya)da italyan olimi Perondino qalamiga mansub “Skiflik buyuk Tamerlan” kitobi bosilib chiqdi. Bu Yevropada

Amir Temur haqidagi ilk ilmiy tadqiqot hisoblanadi. Yevropa tillarida (ispan, ingliz, frantsuz) e'lon qilingan yozma manbalar ichida birinchi o'rinda ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning "Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403- 1406)" turadi. Buyuk Rembrandt Boburiylar zamonidagi hind miniatyuralaridan ilhomlanib, Amir Temurni uning vorislari Umarshayx, Zahiriddin Bobur, Humoyun va Akbar davrasida tasvirlaydi. XVI asrda yashagan mashhur ingliz shoiri va dramaturgi Kristofer Marloning "Buyuk Temur" nomli tragediyasida yosh Temurbek o'zining tengsiz aqli, salohiyati va shijoati bilan jahon tarixidagi qudratlil podsholardan biriga aylangani namoyish etilgan. Tragediya XVI asrgacha sahnadan tushmay, Angliyada teatr mavsumini boshlab bergen.

**Temuriylar harbiy san'ati** - jahon harbiy san'ati rivojiga Amir Temur va uning avlodlari, xususan, Bobur qo'shgan salmoqli hissa benihoya kattadir. Bu mutaxassislar tomonidan haqli ravishda e'tirof etilgan. Buyuk lashkarboshi va novator harbiy tashkilotchi hisoblanmish Sohibqiron intizomli armiya tuzishga, jang paytida qo'shin qismlarini oqilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo'llashga, mavjud to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, qo'shindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. Amir Temur va temuriylar armiyasi chorvadorlar qatori kosibchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan mashg'ul o'troq aholidan ham askar to'plagan. Qo'shinda harbiy kuchlarning asosini tashkil qilgan otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalar ham xizmat qilgan. Sohibqiron Sharqda birinchilardan bo'lib armiyaga o't sochar qurol - to'p (ra'd)ni olib kirgan. Temuriylar davrida bu qurolning boshqa turlari (zarbzan, farangi, qozon va h.k.) keng yoyildi. Tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo'linmalar tashkil qilingan. Amir Temur jahon harbiy ish tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida an'anaviy 5 bo'lakdan farqli ravishda 7 qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etgan. Bu yangilik keyinchalik To'xtamish, Shayboniyxon singari sarkardalar tomonidan o'zlashtirilgan.

Ibn Arabshohning guvoxlik berishicha, Sohibqiron qo'shinida ayollardan iborat bo'linmalar bo'lib, ular erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalarini ko'rsatgan. Temuriylar armiyasi son jihatdan aniq tashkil etilgan, uning jangovar tartibi takomillashib borgan, o'z vaqtining ilg'or qurol va texnikasi bilan ta'minlangan, qismlar bir-biridan kiyimbosh, bayroq va tug'lari bilan farqlangan.

Bunday farqlanish jangda qo'shinni boshqarishda qo'l kelgan. Dushman mudofaasini turli usullar bilan barbod etish, raqibning yirik shaharlariga qo'qqisidan zarba berish, qal'a, qo'rg'on va hisorlarning uzoq muddat muhosara qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng ko'lamda qurshab olib, qishloq, shahar, tuman, viloyatlarni birin ketin zabit etish, dushmanni batamom yakson etgungacha ta'qib qilish, taslim bo'lgan mamlakatlarni boshqarishga ishonchli kishilarni tayinlash singari amaliyotlar Amir Temur va temuriylarga ko'plab zafarlar olib kelgan.

**Taktika** jihatdan Amir Temur armiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lган. Razvedka a'lo darajada yo'lga qo'yilgan, qismlarning janggohda yoki jangovar safda talab darajasida harakat qilishi uchun zarur tadbir va choralar ishlab chiqilgan, ularni jang paytida tezkorlik bilan boshqarishga alohida diqqat qaratilgan. O'nlik, yuzlik, minglik va tuman qo'mondonlarini tanlash masalasiga oliy bosh qo'mondon mas'ul hisoblangan. Sohibqironning harbiy san'at rivojiga qo'shgan ulkan xizmatlaridan yana biri jang vaqtida qo'shin qanotlarini dushman hujumidan muhofaza qilish va o'z navbatida, g'anim kuchlarini yon tomonidan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism - **qunbulning** joriy etilishi bo'lgan. Bunday yangi harbiy qism Aleksandr, Gannibal, Chingizxon, Lyudovik XIV, Buyuk Fridrix kabi atoqli sarkardalar qo'shinida bo'lмаган. Shayboniyxon armiyasida bunday keyin mavjud edi va u to'lyuma atamasi bilan nomlangan. Har bir askarga bitta yoy, 30 ta o'q, bir sadoq, bitta qalqon, qo'shin toplash haqida maxsus buyruq (tunqol) e'lon qilingach, hukmdor tomonidan tuzilgan ro'yxatga binoan jangchilar otulovi, qurolyarog'i, oziq-ovqati, yemxashagi bilan

to‘planish yeriga, bitta qo‘srimcha ot, yarim man ( 1 manн= **816 gr.**) og‘irligida arqon, teri xalта va bitga qozon ajratilgan. Har 10 jangchi bir chodir, 2 belkurak, bir kerki, bitta o‘roq, bir arra, bir tesha, bitta bolta va 100 dona nina olib yurishi shart hisoblangan. Sara jangchilarning har 5 tasi bitta chodirga joylashgan.O‘nbegining alohida chodiri va 5 ta qo‘srimcha oti bo‘lgan. Yuzbegiga ham alohida chodir va 10 ta qo‘srimcha ot berilgan. Mingbegi chodirdan tashqari soyabon bilan ham ta’minlangan. Sohibqiron armiyasining turli bo‘linma va qismlariga 313 bek boshchilik qilgan. Ulardan dastlabki 100 tasi o‘nbegilik, ikkinchi 100 tasi yuzbegilik, uchinchi 100 tasi mingbegilik lavozimlarini egallagan.

**Diviziya** - tumanlarga Amir Temurning farzandlari, nabiralari va nomdor lashkarboshilar rahbarlik qilgan. Yetarli miqdorda qo‘sish to‘plangach, u ko‘rikdan o‘tkazilgan. Temuriylar davrida yurish yoki jangdan oldin lashkarni ko‘rikdan o‘tkazib, uning jangovar ruhi va holatini aniqlash izchillikka aylangan. Qo‘shtin jangovar holatini nazardan o‘tkazish imtihon qilish usuli sifatida e’tirof etilgan ovgarta (ov uyushtirish)dan unumli foydalanilgan.Temuriylar harbiy yurishlarga ko‘proq ko‘klam, yoz va kuz mavsumlarida otlanishni ma’qul bilganlar. Safar qoidasiga ko‘ra, har bir sarkarda o‘z darajasi va lavozimiga qarab qism va bo‘linmalar bilan yasol(saf) - jangovar tartibda harakat qilgan. Yasolni buzgan shaxs qattiq jazolangan. Qo‘sish janggohga tushganda lashkargoh atrofi aravalor bilan to‘silgan, xandaqdar bilan ihota qilingan, soqchi bo‘linmalar tomonidan qo‘riqlab turilgan. Yurish yoki jang paytida boshboshoqlik, parokandalikni oldini olish maqsadida har bir bo‘linma, guruh, qismning o‘z paroli - o‘ron belgilangan.

Armiya safar chog‘ida quyidagi jangovar tartibda harakat qilgan:

- Bosh kuchlardan ancha oldinda qaravul (avanpost);
- undan keyin mang‘lay (hiravul)(avangard);
- barang‘ar;
- juvang‘ar;
- qo‘l(markaz);
- chag‘davul (aryergard) yurgan

Qo‘sish ketidan o‘g‘ruq (oboz) peshmapesh kelgan. Oliy bosh qo‘mondon jang maydonini tanlashga alohida diqqat qaratgan. Janggohning tekis, keng va qo‘sish qismlarini joylashtirishga qulay bo‘lishi talab qilingan. Jang maydonining suvgaga yaqin bo‘lishi hamda jang vaqtida quyosh nurining askarlar ko‘ziga tushmasligi maqsadga molik hisoblangan. Yirik muhorabalar paytida dastasi uchiga yarim oy shakli qadalgan jangovar bayroq va tug‘lar bilan bezatilgan oliy qo‘mondon borgohi balandlikka o‘rnatilgan. U

yerdan jangning borishi kuzatilib turilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temurning 12 ming kishilik qo‘smini jangga mama bunday tartibda kirgan. Dushman bilan dastlabki to‘qnashuvni ayg‘oqchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan qaravul boshlab bergen. Shundan so‘ng o‘ng va chap qanot ilg‘or qismlari -barang‘ar xiravuli va juvang‘ar hiravuli madadida asosiy ilg‘or qism - mang‘lay jangga kirgan. Mang‘lay ortidan barang‘ar hamda juvang‘arning qolgan 2 bo‘lagi -chapavul va shag‘avul ketma-ket harakatga kelgan. Ushbu kuchlar dushmanni Mag‘lub etishga kifoya qilmasa, bosh qo‘mondon (amir ulumaro) boshchiligidagi markaz (qo‘l) (g‘o‘l) hal qiluvchi hujumga tashlangan: hiravul, qaravul, manglay (xuravul). Sohibqiron armiyasi qatnashgan ulkan janglarning taktik borish manzarasi quyidagicha bo‘lgan: qo‘sish

markazi 40 bo‘luk - polkka taqsimlangan va Oliy bosh qo‘mondonga itoat qilgan. Ushbu bo‘laklarning sara jangchilardan tashkil topgan 12 bo‘lagi safning 1qatorida, qolgan 28 bo‘lagi 2 va 3 qatorlarda joylashgan.

Qirq bo‘lakning o‘ng tarafı oldida amirzodalar qismlari, so‘l tarafı oldida qarindoshlar va ittifoqchilar qismlari saf tortgan. 2 qatorning barang‘arida 6 bo‘lak o‘z ilg‘ori - hiravul bilan o‘rin egallagan. Ayni shu miqsordagi bo‘lak va hiravulga juvang‘ar ham ega bo‘lgan. 2 - qator barang‘ari va juvang‘ari oldida yuqoridagi tartibda 1qator qismlari joylashgan. Uning oldida bosh ilg‘or - mang‘lay (yoki hiravuli buzurg) harakatda bo‘lgan.

Yengil suvoriylardan iborat 2 bo‘lak armiyani qo‘qqisidan bo‘ladigan hamladan muhofaza qilish, dushman kuchlari harakatini kuzatish bilan band bo‘lgan. Bobur qo‘smini dastlab an’anaviy 5 qismdan tashkil etilgan holda harakat qilgan. Keyinchalik bu jangovar tartibga jiddiy o‘zgartirishlar kiritilgan, markaz (g‘o‘l) kuchaytirilgan. Markaz o‘ng qo‘l barang‘ar chapavul va so‘l qo‘lga taqsimlangan hamda o‘ng yon va so‘l yondan iborat xossa tobin oldida qator vazifasida harakat qilgan. Saralangan askarlardan tuzilgan xossa tobin markaz (g‘o‘l)dan kuchsizroq, bo‘ydan esa kuchliroq hisoblangan.

## XULOSA

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Sohibqiron Amir Temur o‘z davrining mohir sarkardasi hisoblangan. Mashhur davlat arbobi, O‘rtta asrlar islohotchisi, sarkarda,adolat uchun tolmas kurashchi, ilm-fan va madaniyat rahnamosi Amir Temur davrida ilm- fan, madaniyat va ta’lim mislsiz darajada yuksaldi. Siyosiy maydonga qadam qo‘yanida Amir Temur endigina 24 yoshga kirgandi. Mamlakat parokanda, mahalliy siyosiy kuchlar o‘rtasidagi o‘zaro qarama-qarshiliklar avj olgandi. Tarix Amir Temurni makedoniyalik Iskandar, Doro I, Yuliy Sezar kabi yirik sarkardalar bilan bir qatorga qo‘yadi. Amir Temur mingta jang o‘tkazib birontasida ham yengilmagan mashhuri zamon sarkarda sifatida, davlat tuzilishi ishlariga, ilm-fan, ma‘rifat, madaniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan siyosiy arbob sifatida tarixga kirdi. Amir Temur tarafidan tarqoq viloyatlar yagona davlatga birlashtirilib, markaziy hokimiyat tuzilib barqarorlashgandan keyin, mamlakat iqtisodiyoti mustahkamlandi, savdo va hunarmandchilik ishlab chiqarishi rivojlana boshladi, qo‘shni va uzoqdagi mamlakatlar bilan savdo-xo‘jalik aloqalari kengaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Mustaqillik-ezgu niyatlarimiz, buyuk maqsadlarimiz ro‘yobi yo‘lida qudrat manbai. Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagagi nutqi.
2. Mirziyoyev Sh.M. Mustaqillik-ezgu niyatlarimiz, buyuk maqsadlarimiz ro‘yobi yo‘lida qudrat manbai. Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tan’tanali marosimdagagi nutqi.
3. Mixail Ivanin Ikki buyuk sarkarda T. 1994 134 – 150 b.
4. Nizomiddin Shomiy, Zafarnoma, T. 1996
5. Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, T. 1997
6. Hamidulla Dadaboyev Amir Temurning harbiy mahorati T. 1996 50 –

7. I.Karimov “Sohibqiron kamolga yetgan yurt” T.1996
8. I.Karimov “Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayotdir” T.1996
9. Amir Temur jahon tarixida, Parij. 1996